



## FARG'ONA VILOYATI SO'X TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 20 - yanvar

6-11-159-Q/23

So'x tumani hokimligi

### **So'x tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to'g'risida.**

O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. So'x tumandagi qabristonlarda 2023 yilda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o'rinbosari (S.Murzoev), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (O.Jalolov)larga:

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

-sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iy rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniyligni ta'minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (O.Jalolov),(fuqarolik xizmati ko'rsatish boshqarmalari) hamda qabristonlarning ma'muriyati:

-xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, ob'ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4 So'x tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (A.Jo'raev) «Sadoi So'x» gazetasi bosh muharriri (M.Tohirov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasman e'lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko'rsin.

5.Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari S.Murzoev zimmaciga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**С.Сайидмусаев**

So‘x tuman hokimining  
2023 yil 20 yanvardagi  
6-11-159-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**So‘x tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish  
bo‘yicha tariflar miqdori**

<b>Tr</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Tuman</b>
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	135000
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul